

AKSIYA O‘TKAZISH TARTIBI

Muqaddima

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Aksiya ishtirokchilari

3-§. Aksiyada ishtirok etish shartlari

4-§. Aksiyada yutuqqa qo‘yilgan sovrinlar tarkibi

5-§. Aksiyani o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi

6-§. Yutuqlarni topshirish tartibi va muddati

7-§. Aksiyani o‘tkazish, uni to‘xtatish yoki muddatidan oldin to‘xtatish to‘g‘risida ma’lumotlarni joylashtirish

8-§. Yakuniy qoidalar.

Mazkur hujjat “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) va “Mastercard Europe SA” **xalqaro moliya tashkiloti** o‘rtasida 2024-yil 26-iyulda tuzilgan bitim asosida ishlab chiqildi va u Bankda “MasterCard” **xalqaro to‘lov tizimi** bank kartasi egalari uchun “Mikrokreditbank 20 yoshda!” aksiyasini o‘tkazish, g‘oliblarni aniqlash va ularni taqdirlash tartibini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Aksiya tashkilotchilari Bank va “MasterCard Europe SA” **xalqaro moliya tashkiloti hisoblanadi.**

2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiya tashkilotchilari tomonidan o‘tkaziladi.

3. Aksiya 2 bosqichda o‘tkaziladi:

I-bosqich: 2026-yil 5-yanvardan 30-iyungacha

II-bosqich: 2026-yil 7-iyuldan 31-avgustgacha

2-§. Aksiya ishtirokchilari

4. Aksiyada 18 yosh va undan yuqori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

Aksiyada ishtirok etish uchun ishtirokchilardan haq olinmaydi.

5. Aksiyada Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlarining ishtirok etishlari taqiqlanadi.

6. Aksiyani o‘tkazilish davrida ishtirokchilarning ushbu Vaqtinchalik tartib qoidalariga amal qilishlari talab qilinadi.

3-§. Aksiyada ishtirok etish shartlari

7. Bank tomonidan aksiyani amalga oshirish davrida yoki undan oldin emissiya qilingan “MasterCard” **xalqaro to‘lov tizimi** bank kartasiga ega bo‘lgan va ushbu bank kartasi orqali

aksiya davri davomida har oy eng kamida:

- Mastercard Standart karta egalari uchun bir oyda kamida 25 (yigirma besh) AQSH dollari yoki so‘mda 300 000 (bir yuz sakson ming) so‘mdan ortiq;

- Mastercard World Black Edition karta egalari uchun bir oyda kamida 25 (yigirma besh) AQSH dollari yoki 300 000 (uch yuz ming) so‘mdan ortiq;

- Mastercard World Elite karta egalari uchun bir oyda kamida 25 (yigirma besh) AQSH dollari yoki 300 000 (uch yuz ming) so‘mdan ortiq va undan ko‘p qiymatda tranzaksiyalarni amalga oshirgan shaxslar avtomatik ravishda aksiya ishtirokchisiga aylanadi.

Kartadan onlayn va oflayn to‘lov qilish kabi tranzaksiyalar aksiyada ishtirok etadi.

Har bir amalga oshirilgan tranzaksiya bir imkoniyat sifatida qaraladi va yutish imkoniyatini oshirib boradi. Aksiya davrida yutuq chiqqan kartalar aktiv holatda bo‘lishi shart.

Aksiya bo‘yicha tranzaksiyalarni amalga oshirish davri:

I-bosqich	05.01.2026 00:00 dan - 30.06.2026 23:59 gacha	Toshkent vaqti bilan
II-bosqich	07.07.2026 00:00 dan - 15.12.2026 23:59 gacha;	

8. Aksiyada ishtirok etish uchun to‘lov tranzaksiyalari faqat savdo va xizmat ko‘rsatish terminallari (oflayn) hamda internet saytlari orqali (onlayn) amalga oshirilgan bo‘lishi lozim. Aksiyada bankomatdan yechilgan naqd pul hamda ishtirokchining MKBANK kartalari o‘rtasida o‘zaro xalqaro pul o‘tkazmalari (P2P) ishtirok etmaydi. Boshqa bank kartalariga o‘tkazmalar mustasno.

4-§. Aksiyada yutuqqa qo‘yilgan sovrinlar tarkibi

10. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi aksiya tashkilotchilari hisobidan shakllantiriladi. Aksiyaning birinchi ikkinchi va uchinchi bosqich g‘oliblari quyidagi qimmatbaho sovrinlar bilan taqdirlanadi:

Yutuqlar:

I-bosqich Jonli efir: 03.07.2026	10 dona Samsung S26 Ultra (256GB) smartfoni; 10 dona iPhone 17 Pro Max (256GB) smartfoni; 1 dona 2 kishilik Yevropaga (Budapesht) sayohat yo‘llanmasi (Super yutuq: 1 dona BYD Yuan Up avtomobili);
II-bosqich Jonli efir: 18.12.2026	10 dona Samsung S26 Ultra (256GB) smartfoni; 10 dona iPhone 17 Pro Max (256GB) smartfoni; 1 dona 2 kishilik Dubayga sayohat yo‘llanmasi; Bosh yutuq: 1 dona BYD Song Plus DM-i UZPRIDE avtomobili.

11. Yutuq egasi ma'lum bir yutuqni boshqa bir yutuqqa almashtirishni yoki uni pul ko'rinishida berishni talab qilish huquqiga ega emas. 2 kishilik xalqaro sayohat chiptasi (Yevropaga sayohat) hamda 2 kishilik Dubayga sayohat yo'llanmalari bundan mustasno.

5-§. Aksiyani o'tkazish va g'oliblarni aniqlash tartibi

12. Aksiya o'tkazish va g'oliblarni aniqlash Bank boshqaruvi raisining buyrug'iga asosida tuzilgan komissiya a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga hamkor tashkilot vakillari ham kiritilishi mumkin.

13. Aksiya ushbu Vaqtinchalik nizomning 3-bandida belgilangan muddat ichida ikki bosqichda o'tkaziladi.

14. G'oliblar har bir bosqich yakunlangandan so'ng 10 kun muddat ichida ushbu komissiya a'zolari tomonidan maxsus dastur yoki shu kabi boshqa dasturlar yordamida tasodifiy (random.org) tanlash orqali aniqlanadi va tasdiqlanadi.

15. Bank aksiyani o'tkazish tartibiga bir tomonlama qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, yutuqlar tarkibini kengaytirish yoki ularni o'zgartirish huquqiga ega. Bunda ular kuchga kiritilishidan 3 (uch) ish kuni oldin bu haqdagi tegishli axborot Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

16. Aksiya g'oliblarining nomi va surati Bankning rasmiy veb-sayti – www.mkbank.uz hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtiriladi.

6-§. Yutuqlarni topshirish tartibi va muddati

17. Sovrinlarni topshirish sanasi va vaqti aksiya tashkilotchilari tomonidan belgilanadi.

Aksiya bo'yicha yutuqlar Bosh bank binosida (Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur Shox ko'chasi 4-uy) ma'sul shaxslar tomonidan topshiriladi.

18. Yutuqni qabul qilib olishda, yutuq egasi shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti yoki ID-kartasi, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning yashash guvohnomasi yoki ID-kartasini) va yutuqli o'yinda tranzaksiya amalga oshirgan MKBANK-Mastercard kartasini taqdim etadi.

Aksiya go'libining zarur hujjatlarni imzolashdan va/yoki boshqa yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni bajarishdan bosh tortishi sovrinni olishdan bosh tortish deb hisoblanadi.

Yutuq o'z egasiga topshirilganda "Topshirish – qabul qilib olish dalolatnomasi" tuziladi (Foto va Video xisobotlari bilan birgalikda). Yutuqqa egalik qilish huquqi dalolatnoma imzolangan vaqtdan boshlab yutuq egasiga o'tadi.

19. Bosh sovrin bilan bog'liq rasmiylashtirish va soliq xarajatlari, topshirilgan boshqa sovrinlarni Bankdan olib ketish xarajati yutuq egasi tomonidan amalga oshiriladi.

20. Yutuq egasi Bank tomonidan yutuqni olib ketish to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab 30 kun davomida o'z yutuq'ini olib ketishi lozim. Uzrli sababga ko'ra yutuq egasi

tomonidan yutuqni o'z vaqtida olib ketish imkoniyati bo'lmaganda, yutuq egasining yozma arizasiga ko'ra uni olib ketish muddati uzaytirilishi mumkin.

21. Yutuq egasi bilan 30 kun davomida bog'lanish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, yutuq Bank tasarrufiga o'tkaziladi va yutuq bekor qilinadi. Bank tomonidan qayta aksiya elon qilinishi mumkin.

22. Tashkilotchilar sayohat yo'llanmasi sovrindorlariga chet el elchixonalari tomonidan vizaning ma'qullanishi yoki ma'qullanmasligi holatlari bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

23. Yutuq egasi o'z yutug'ini olib ketishni notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida uchinchi shaxsga topshirishi mumkin. Bunda yutuqni topshirish ushbu Vaqtinchalik nizomning 18-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

7-§. Aksiyani o'tkazish, uni to'xtatish yoki muddatidan oldin to'xtatish to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirish

24. Aksiyani o'tkazish reklama va video roliklar ko'rinishida Bankning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilib boriladi.

25. Aksiya o'tkazish tartibi to'g'risida batafsil ma'lumot Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Aksiya bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotni Bankning Call markaziga (1285) murojaat qilgan holda ham olish mumkin.

26. Aksiya to'xtatilganda yoki muddatidan oldin to'xtatilganda, aksiyani o'tkazish shartlari o'zgarganda, aksiya muddati uzaytirilganda hamda uni o'tkazish tartibiga o'zgartirish kiritilgan holatlarda bular to'g'risida Bankning rasmiy veb-saytida e'lon beriladi.

8-§. Yakuniy qoidalar

27. Aksiyani o'tkazish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni tomonlar muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

28. Aksiyaning o'tkazilishini to'g'ri tashkil qilish bo'yicha javobgarlik ushbu Vaqtinchalik nizomning 12-bandiga muvofiq tuzilgan komissiya a'zolari zimmasiga yuklatiladi.